

yig'ilishining

Bank Boshqaruvi

2026-yil __-yanvardagi
__-sonli bayoniga
ilova

"Korporativ va kichik biznes subyektlarini kreditlash tartibi"ga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar

AT "Aloqabank" Boshqaruvi yig'iilishining 2023-yil 27-apreldagi 205-son bayoni bilan tasdiqlangan va 845-son bilan ro'yxatga olingan "Korporativ va kichik biznes subyektlarini kreditlash tartibi" (bundan buyon matnda "Tartib" deb yuritiladi)ga quyidagi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin:

I.Tartibning "VIII. Kreditlarni so'ndirish" bo'limiga quyidagicha yangi kichik bandlari qo'shilsin:

8.17.3 g) Kredit shartlarini qayta ko'rib chiqishni so'rab murojaat qilingan arizalarini ko'rib chiqish muddatlari hamda hujjatlarni rasmiylashtirish mijoz tomonidan ariza asoslantiruvchi hujjatlar bilan birga taqdim etilgan kundan boshlab, tegishli vakolatli kollegial organ tomonidan mazkur tartibning modulsiz bo'lgan kreditlarni ajratish biznes-jarayonlari asosida amalga oshiriladi;

h) Mijozning kredit shartlarini o'zgartirish bo'yicha arizasi tegishli tartibda vakolatli kollegial organ tomonidan (vakolatlar darajasi bo'yicha) ko'rib chiqilib, maqullangan yoki rad qilingan taqdirda Front-ofis xodimi qabul qilingan qaror to'g'risida qarz oluvchini 3 (uch) ish kuni ichida yozma yoki aloqa vositalari orqali xabardor qiladi.

8.17.4 Bank tomonidan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga (yuridik shaxs, YTT, dehqon va fermer xo'jaliklari v.h.k) ajratilgan kreditlar bo'yicha Fors-major (yengib bo'lmaydigan kuchlar) holati tomonlarning xohish-irodasiga bog'liq bo'lmagan, oldindan aytib bo'lmaydigan va shartnoma majburiyatlarini bajarishga to'sqinlik qiladigan favqulodda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, urush, pandemiya va h.k.) natijasida shunigdek transportda yo'lovchi va yuklarni tashish faoliyati uchun transport vositalarini sotib olishga ajratilgan kredit shartnomalari bo'yicha baxtsiz xodisalarning yuzaga kelishi (transport vositasining avtohalokatga uchrashi, portlab, yonib ketishi natijasida yaroqsiz holatga kelishi) natijasida yuzaga keladigan kredit qaytmaslik xatarini oldini olish maqsadida kredit muddatini uzaytirmagan holda kredit shartnomasi ichki grafigini o'zgartirishga Kredit komissiyasi qaroriga asosan tegishli amaliyotlar bajariladi.

Bunda yuqoridagi holatlar aniqlanganda mijoz arizasiga asosan HKXKM Kredit komissiyasi a'zolari tomonidan joyiga chiqqan holda o'rganilib, dalolatnoma rasmiylashtirilishi, ushbu dalolatnomaga foto va video fayllar ilova qilinishi hamda Kredit komissiyasi qarori qabul qilinishi talabi o'rnatiladi.

II. Tartibga kiritilayotgan ushbu o'zgartirishlar va qo'shimchalar o'ratilgan tartibda tasdiqlangan hamda ro'yxatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi.